



## The role of "Turkiston viloyatining gazeti" in shaping public opinion in Turkistan

Sayyora KHALIMOVA<sup>1</sup>

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

### ARTICLE INFO

#### **Article history:**

Received April 2025  
Received in revised form  
10 April 2025  
Accepted 2 May 2025  
Available online  
25 June 2025

#### **Keywords:**

typography,  
Russian Empire,  
newspaper,  
essay,  
Russification,  
periodical press,  
public opinion.

### ABSTRACT

This article analyzes the role of "Turkestan viloyatining gazeti", the first periodical publication in Turkestan, in shaping public opinion and fostering a local journalistic intelligentsia. Particular attention is given to the contributions of Jadids such as Mahmudkhoja Behbudi, Hodji Muin, Said Riza Alizoda, Sadridin Aini, and Isakhan Ibrat in the development of the newspaper and the formation of socio-political views of the time.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp163-167>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Turkistonda ijtimoiy fikrni shakllanishida "Turkiston viloyatining gazeti"ning o'рни

### ANNOTATSIYA

#### **Kalit so'zlar:**

matbaa,  
chor imperiyasi,  
gazeta,  
ocherk,  
ruslashtirish,  
vaqtli matbuot,  
tafakkur,  
ijtimoiy fikr.

Mazkur maqolada Turkistonda ilk vaqtli matbuot nashri bo'lgan "Turkiston viloyatining gazeti"ning mahalliy ziyoli jurnalist kadrlarni shakllanishidagi o'рни misollar asosida tahlil etilgan. Xususan, bunda Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin, Said Rizo Alizoda, Sadridin Ayniy, Isoqxon Ibrat singari jadid ma'rifatparvarining ushbu gazetadagi ishtiroki, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining shakllanishiga e'tibor qaratildi.

<sup>1</sup> Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan. E-mail: sayyorahalimova1971@gmail.com

## Роль «Туркистон вилоятининг газети» в формировании общественного мнения в Туркестане

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

типография,  
Российская империя,  
газета,  
очерк,  
русификация,  
периодическая прес.

В статье проанализирована роль первого периодического печатного издания в Туркестане – «Туркистон вилоятининг газети» – в формировании общественного мнения и становлении местной журналистской интеллигенции. В частности, особое внимание уделено участию в этой газете таких просветителей-джадидов, как Махмудходжа Бехбуди, Ходжи Муин, Саид Ризо Ализода, Садриддин Айни, Исхакхон Ибрат, и влиянию этого участия на формирование их общественно-политических взглядов.

### KIRISH

Ma'lumki, Turkistonda vaqtli matbuot XIX asrning so'nggi choragida, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati davrida yuzaga keldi. Dastlab 1870-yil 28-apreldan rus tilida "Turkestanskije vedomosti" gazetasi, keyinchalik "Turkiston viloyatining gazetasi" mahalliy aholi uchun asosiy axborot manbaiga aylandi. Ushbu ilk davriy nashrlar "avtoritar nazariya qoidalariga ko'ra Rossiya imperiyasi va uning imperatori manfaatlariga xizmat qildi [1]. Ushbu nashrlar zimmasiga "Rus aholisida "Turkistonning haqiqiy egalari – biz" degan tushunchani shakllantirish va mustahkam o'rnatish", "Turkiston aholisini Rossiyaning sodiq, itoatkor fuqarolariga, aniqrog'i qullariga, o'lkani imperiyaning arzon xomashyo yetkazib beruvchi bir mintaqasiga aylantirishda mustabidlarga yordam berish" vazifasi yuklatilgan edi [2]. Haqiqatan, gazeta chorizmning ruslashtirish siyosatiga, mahalliy aholini sodiq fuqarolik ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. Ammo Turkistonda milliy uyg'onish davri publitsistikaning yuzaga kelishiga, millatning tafakkur dunyosi o'zgarishiga sabab bo'ldi.

### MAVZUGA OID ADABIYATLARNING TAHLILI

"Turkiston viloyatining gazetasi" da (rus tilida: "Turkestanskaya tuzemnaya gazeta") – 1890-yildan boshlab o'zbek shoirlarining she'rlari, yo'l ocherklari, hajviy asarlari chop etiladi. Dastlab Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Mashrab, Muqimiy, Kamiy, So'fizoda, Mirmuhsin Shermuhammedov, Tavallo, Mahmudxo'ja Behbudiy, Said Rizo Alizoda, Vasliy Samarqandiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, keyinchalik, ijtimoiy publitsistika sohasida mahalliy ziyolilardan Sattorxon, Ishoqxon Ibrat, ibn Yamin Xudoyorxonov, Nozimaxonim, Ibrohim Davron, Nodim Namangoniy, Hoji Muin muntazam qatnasha boshlagan. "Turkistonda o'zbek tilida bu gazetaning nashr etilishi ko'plab tarixchi, tilchi, adabiyotchi olimlarning, shoirlarning voyaga yetishiga, ziyolilarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari shakllanishiga, jadidchilik oqimining yuzaga kelishiga hamda 1906–1917-yillarda o'zbek ziyolilari tomonidan turli yo'nalishlarda tashkil etilgan hamda nashr etilgan gazetalarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi" [3]. Masalan, gazetada Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning "Bo'mbey, Kashmirga qilgan sayohati", "Toshkent erkaklar gimnaziyasi", "Toshkent shahridagi ko'rgazma haqida" maqolalari va o'nlab she'rlari, sayohatnomalari chop etilgan. Ijodkorning aksariyat maqolalarida ilmsizlik, jaholat va nodonlik tanqid etilgan. Bu xususda professor M.Xudoyqulov o'z tadqiqotida keng tahlil etgan. Masalan, "Odamzod ko'nglining avsofi",

“Ba’zi madrasalar xususida” deb nomlanuvchi maqolalarida o’zi ko’rgan asosli faktlar asosida ijtimoiy illatlarni tanqid qiladi. Ilmli odamning ko’nglini oltin va kumushga, ilmsiz, johil kishilar ko’nglini tosh va qumga qiyos etadi [4]. Furqatning “Bir ho’qandlik tolibi ilmning xati” ruknida berilgan maqolasi Toshkentdagi o’g’il bolalar gimnaziyasi haqida yozilgan. “Toshkent shahridagi podshohlik madrasasi, ya’ni o’g’il bolalar o’qiydurg’on gimnaziyaning boshlig’i ijozati bilan ho’qandlik kamina Zokirjon Furqat va hoji Zohur ul gimnaziyaning ko’rub tomosha qilduq” [5]. Muallif gimnaziya o’quv dasturi bilan o’quvchini tanishtiradi. Gimnaziyada bolalarning ilm olishi uchun barcha asbob-uskunalar mavjudligi, o’quvchilar, lotin, nemis va rus tillarini o’rganishlari hikoya qilingan. Maqola so’nggida esa Toshkent shahrining ruslar turadigan qismida mavjud gimnaziyalar ro’yxati berilgan. Furqat nafaqat shoir, ma’rifatparvar sifatida ilmning mohiyatini “Ilm xosiyati”, “Gimnaziya”, “Suvorov” asarlari orqali ham keng targ’ib etgan. “Furqatning fikricha, qoloqlik va iqtisodiy qashshoqlikdan qutilishning yagona yo’li Yevropa ilg’or madaniyatiga murojaat qilishdir” [6]. Jadid publisistikasining asoschisi Mahmudxo’ja Behbudiy esa “Turkiston viloyatining gazetisi”da 1903-yildan boshlab qatnasha boshlagan [7]. Masalan, uning “Ilmning foydasi haqida”, “Saylovlar haqida”, “Saylov ham soliq to’g’risida”, “Samarqanddan maktub” (Saylov haqida), “Bir vafodor zaifa haqida hikoya”, “Davlat Dumasiga saylovlar oldidan”, “Geografiya darsligi haqida”, “Jo’g’rofiya ilmi” sarlavhali turli janrlarda 80 ga yaqin materiallari chop etilgan. Bu haqda Sadriddin Ayniy shunday yozadi: “Mahmudxo’ja Hijoz safaridan so’ngra Turkiston xalqining ilmiy va ijtimoiy ahvoliga doir xotiriga kelgan ba’zi-bir fikrlarni (boshqa gazeta yo’qligi uchun) “Turkiston viloyatining gazetisi”da yozib turgon. Yozg’on narsalarini qo’liga ko’tarib majlisga borib o’qib yurg’on” [8]. Bundan tashqari, gazeta sahifalarida Said Rizo Alizodaning “Musulmonlar o’g’il-qizlarining tarbiyasi xususida”, Mirmuhsin Shermuhammedovning “Oqsoqollar saylovidagi tasodif”, “Musulmonlar hayotidan”, “Nosvoyning zarari haqida”, “Faryod”, Mulla Olimning “Qozilarning tajribalari haqida”, Sadriddin Ayniyning “Qizlarni ham zamona ilmidan xabardor etayluk”, “Redaksiyaga xat”, Hoji Muinning esa “Gazeta o’qimoqning manfaati”, “Nasihat umumiy”, “O’zbekka javob”, “Yangi asarlar”, Isoqxon Ibrat, Ibrohim Davron qalamiga mansub 20 dan ortiq materiallar chop etilgan. E’tiborli jihati, tadqiqotimizda janrlar xilma-xilligini kuzatdik. Jumladan, mahalliy mualliflar tomonidan tanqidiy, tahliliy maqolalar, taqrizlar, sayohatnomalar, reportajlar, hikoyalar, fel’etonlar, sharhlar, yo’l ocherklari chop etilgan.

O’zbek matbuotida dastlabki ilk jurnalistlardan yana biri ma’rifatparvar ziyoli Sattorxon Abdug’afforov (1843–1902-y.y.) hisoblanadi. U “Turkiston viloyatining gazetisi”da 1883-yildan o’z faoliyatini boshlagan. Bu haqda professor B. Do’stqoraev ham alohida qayd etib o’tgan: “Mahalliy aholidan chiqqan dastlabki jurnalistlar, asosan, “Turkiston viloyatining gazetisi”ga yozishdan boshlaganlar. Mulla Olim Abulqosimov, Sattorxon Abdug’afforov, Ibn Yaminbek Xudoyorxonov, Furqat kabi publisistlarning qalami shu tarzda charxlandi” [9]. Sattorxon Abdug’afforovning “Qo’qon xonligi ichki ahvolining qisqacha ahvoli”, “Musulmon eshonlari”, “Bilimni egallash”, “Turkistondagi eshonlar va xalqni o’z-o’zini boshqarishi haqida mulohazalar”, shuningdek, “Sattorxon maktublari” sarlavhali asarlarida siyosiy-huquqiy masalalarga doir muallif qarashlari aks etgan. Sattorxon ijodida Qo’qon xonligi tarixi, ma’rifatparvarlik g’oyalari o’ziga xos ifodasini topgan. Yosh Cho’lpon esa rus tilini o’rganish zarurati haqida maxsus maqola yozib, “Turkiston viloyatining gazetisi”da chop ettirganida 15 yoshga to’lmagandi. O’zini qiziqtirgan savollar bilan shu yoshda Ismoil G’aspiraliga maktub bilan murojaat etadi:

savollar shu qadar dolzarb ediki, alloma o'z javobini "Turkiston viloyatining gazetisi"da e'lon qiladi [10]. 1912-yilda Fitratning "Munozara" asarini Hoji Muin o'zbek tiliga tarjima qilib, "Turkiston viloyatining gazetisi"da e'lon qildirdi. Bu asar Buxoro ziyoli ulamolarining jaholat botqog'iga botganligi, amirlik aholisining qashshoqlikda kun kechirishi, Rossiya hukumatining zulmi sabab mustamlaka bo'lib qolganligi farangi va mudarrisning munozarasi asosida ochib berilgan. Asar Turkiston ziyolilarini siyosiy xushyorlikka chorlagan. Garchi gazeta chor ma'murlarining g'oyaviy mafkurasiga xizmat qilsa-da, Turkiston ziyolilarining uyg'oq tafakkuriga befarq bo'lmadi. Ushbu nashr millat ziyolilari uchun fikr minbari va va kelajakda o'zbek publisistikasining shakllanishiga yordam berdi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Jadid matbuoti haqidagi dastlabki ma'lumotlar orasida Z. Said, A. Avloniy, N. Abduazizova, M. Xudoyqulov, B. Do'stqoraev qalamiga mansub asarlar alohida ahamiyatga ega [11]. Mazkur asarlarda XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda yo'lga qo'yilgan milliy nashrlar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, professor Boybo'ta Do'stqoraevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" darsligi va yosh olimlarning Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, Cho'lpon, Hoji Muin va boshqa jadidlarning muharrirlik va publisistik faoliyati bo'yicha dissertasiyalar himoya qilindi. "Al-Isloh", "Oyina", "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnallari, "Sadoi Turkiston" gazetasi bo'yicha alohida tadqiqotlar yaratildi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent B. Do'stqoraevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" darsligi asl manbalarga asoslanganligi va tahlillarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ammo aynan jadid publisistlarining shakllanishiga ta'sir etgan nashrlar faoliyati, xususan, "Turkiston viloyatining gazetisi" hali to'liq tadqiq etilmagan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Jadid ma'rifatparvarlik harakatining yuzaga kelishida "Tarjumon" va "Turkiston viloyatining gazetisi" ijtimoiy fikrni shakllanishida muhim rol o'ynagan. Xususan, "Turkiston viloyatining gazetisi" garchi chor hukumatining nashri bo'lgan bo'lsa-da, ammo mahalliy ziyolilar uchun dastlabki matbuot minbari bo'lgan. Shuningdek, gazetada Turkistonning 47-yillik ijtimoiy-siyosiy, madaniy va tarixiy hayoti o'rin olgan. 1870–1917-yillar oralig'ida o'rgangan tadqiqotchi S. Shodmonova: "bu gazetalar Turkistonda davriy matbuotning shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit hozirlab, matbuotning paydo bo'lishiga tamal toshini qo'ydi" degan xulosani beradi" [12]. Haqiqatan, Turkistonda vaqtli matbuotning yuzaga kelishi matbaa sohasini rivojlanishiga, ilk jurnalist kadrlarni shakllanishiga, eng muhimi, axborot almashinuvining kengayishi oqibatida omma tafakkurining o'sishiga yordam berdi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O'zbek jurnalistikasining shakllanishi va rivojlanish bosqini xolis baholashda tarixiy manbalar, vaqtli matbuot nashrlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Turkistonda o'zbek tilidagi ilk vaqtli matbuot nashri "Turkiston viloyatining gazetisi" salkam

47-yil chop etilgan. Garchi gazeta chor imperiyasining mustabidlik siyosatiga xizmat qilgan bo'lsa-da, mahalliy publitsistlarni shakllanishida, jamiyatda ijtimoiy fikrni paydo bo'lishida o'ziga xos o'ringa ega. Shu bois, ushbu tarixiy asl manba

taxlamlarini chuqur o'rganish, tahlil etish, mahalliy ijodkorlar faoliyatini yaxlit tizimli, mavzular tasnifi asosida tadqiq etish zarur. Tarixni xolis baholash – demokratik ruhdagi o'zbek matbuoti asosini yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Saidov H. Jamiyatning demokratlashuvi jarayonida axbort janrlarining rivojlanish omillari. Filol. fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2021. -B.62.
2. Do'stqoraev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi: darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B. 71-78.
3. "Turkiston viloyatining gazet"ga tuzilgan bibliografik ko'rsatkich. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. -B.5.
4. "Turkiston viloyatining gazet", 1890 yil, 10 oktyabr.
5. "Turkiston viloyatining gazet", 1890 yil, 11 aprel.
6. Tursunova D. Samarqand jadidchilik maktabi. T.: Navro'z, 2017. -B.24.
7. Saidov H. M. Behbudiyning publisistik va muharrirlik faoliyati. Fil.f.n. bo'yicha diss. T., 1998. -B.16.
8. Sadriddin Ayniy. Mahmudxo'ja Behbudi hazratlarining qisqacha tarjimai holi / / "Mehnatkashlar tovushi". 1920, 8 – aprel.
9. Do'stqoraev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2009. -B.318.
10. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. T.: Toshkent Islom universiteti, 2016. -B.11.
11. Said Z. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar./1870-1927/. Toshkent-Samarqand: O'zbekiston, 1927.36-b.
12. Avloniy A. Burung'i o'zbek vaqtli matbuotining tarixi. // Turkiston, 1924 yil 24 iyun, Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.: Sharq, 2002.
13. Do'stqoraev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.: Ma'naviyat, 2009.
14. Shodmonova S. Turkiston tarixi – matbuot ko'zgasida. – T.: Yangi nashr, 2011. B. 30.